



NAVOIY VILOYATI NAVBAHOR TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 19-mart

58-5-73-F/25

Navbahor tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-martdagi “Mahallalarda tomorqalardan samarali foydalanishni tashkil etish orqali aholi bandligi va daromadlarini oshirishga qaratilgan ishlarni yanada jadallashtirish to‘g‘risida”gi F-18- son va Navoiy viloyati hokimining 2025-yil 12-martdagi 37-5-0-F/25-sonli farmoyishlariga muvofiq, tumanda tomorqalardan samarali foydalanishni tashkil qilgan holda aholi daromadlarini oshirish hamda kambag‘al oilalar bilan manzilli ishlash, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini yanada faollashtirish orqali 2025- yilgi Navro‘z umumxalq bayramini va muborak Ramazon oyini ko‘tarinki kayfiyatda o‘tkazish maqsadida,

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-martdagi “Mahallalarda tomorqalardan samarali foydalanishni tashkil etish orqali aholi bandligi va daromadlarini oshirishga qaratilgan ishlarni yanada jadallashtirish to‘g‘risida”gi F-18-son hamda viloyat hokimining 2025-yil 12-martdagi 37-5-0-F/25-sonli farmoyishlari ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur farmoyishi bilan 2025-yil 11-martdan boshlab “dolzarbbiroylik” safarbarligi (keyingi o‘rinlarda - safarbarlik) e‘lon qilinganligi inobatga olinsin.

3. Tuman hokimining barcha o‘rinbosarlari, “mahalla yettiligi” va mahalla bankirlari birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-martdagi F-18-son farmoyishining 1-ilovasiga muvofiq tumanga biriktirilgan “Navoiy kon metallurgiya kombinati” AJ bosh direktori o‘rinbosariga amaliy yordam berish maqsadida quyidagi vazifalarni amalga oshirsin: mahallalarni obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha ommaviy hashar va madaniy tadbirlarni tashkilotish; “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida daraxt ko‘chatlari ekilishini tashkil etish, kambag‘al oilalar xonadonlariga ekish uchun mevali daraxtlar ko‘chatlarini yetkazib berish; kambag‘al oilalar a‘zolari hamda ishsiz fuqarolarga moliyaviy ko‘mak paketlari (parranda, chorva mollari va boshqa ekinlarning urug‘ va ko‘chatlari) taqdim etilishini ta‘minlash; mahallalarda aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan mikroloiyhalarni amalga oshirish choralarini ko‘rish; kambag‘al oilalarning og‘ir

kasalligi hamda nogironligi bo'lgan a'zolarining davolanishiga ko'maklashish, farzandlarini xorijiy tillar va kasb-hunarga o'qitish.

4. Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (Juraqulov), ATB "Turonbank" viloyat filiali (Ernazarov), ATB "Agrobank" tuman filiali (Axrorov), "Xalqbank" tuman BXM (Xayriyev) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda ikki kun muddatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur farmoyishining 2- ilovasiga muvofiq "Dolzarb bir oylik" safarbarligi davrida amalga oshiriladigan mikroloyihalarni ovul fuqarolari yig'inlari kesimida taqsimotini ishlab chiqib, tasdiqlanishini ta'minlasin.

5. "Dolzarb bir oylik" safarbarligini muvofiqlashtiruvchi tuman ishchi guruhi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman hokimining o'rinbosari (Tuxliyev), O'zbekiston mahallalari uyushmasi tumanbo'limi (Ne'matov), tegishli tashkilotlar bilan bilan birgalikda mazkur farmoyishga muvofiq amalga oshiriladigan ishlarga mahalla aholisini uyushqoqlik bilan jalb qilsin, Navro'z umumxalq bayrami arafasida ommaviy hashar va madaniy tadbirlarni tashkil etsin;

7. Tuman hokimining o'rinbosari (Tuxliyev)), "Nuroniylar" jamg'armasi va boshqa jamoat tashkilotlarini jalb qilgan holda muborak Ramazon oyida saxovat pesha fuqarolarning xayriya va ehsonlarini kambag'al oilalarning daromadlarini oshirish va mahalla infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan loyihalarga keng jalb qilsin.

8. Tuman hokimining matbuot kotibi (Bobonazarov), O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi (Ne'matov) ga mazkur farmoyishga muvofiq, amalga oshirilayotgan ishlarning mazmun-mohiyati, maqsadi hamda vazifalari ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini tashkil etish tavsifiya etiladi.

9. Mazkur farmoyishni bajarilishi ustidan nazoratni o'z zimmasida qoldiraman.

Tuman hokimi v.v.b



M.Jumaboyev

Navbahor tumani hokimining
2025-yil 19-martdagi
58-5-73-F/25-son farmoyishiga
1-ilova

**“Dolzarb bir oylik” safarbarligini
muvofiqlashtiruvchi tuman ishchi guruhi**

TARKIBI

T/r	F.I.Sh	Lavozimi
1	A.O`roqov	Tuman hokimi, <i>ishchi guruh rahbari</i>
2	M.Jumaboyev	Tuman hokimining birinchi o`rinbosari
3	A.Tuxliyev	Tuman hokimining o`rinbosari
4	J.Sobirov	Tuman hokimining o`rinbosari
5	Z. G`ulomov	Tuman hokimining o`rinbosari
6	M.Abdullayev	Tuman hokimining o`rinbosari
7	G.Ergasheva	Tuman hokimining o`rinbosari - Oila va xotin-qizlar bo`limi boshlig`i
8	B.Juraqulov	Tuman Kambag`allikni qisqartirish va bandlikka ko`maklashish bo`limi boshlig`i v.v.b
9	S.Ernazarov	ATB “Turonbank” viloyat filiali o`rinbosari
10	A.Axrоров	ATB “Agrobank” tuman filiali boshlig`i
11	J.Xayriyev	“Xalqbank” tuman BXM rahbari
12	K.Allayev	Tuman Inson ijtimoiy xizmatlar markazi direktori
13	N.Xudoynazarov	Tuman Qishloq xo`jaligi bo`limi boshlig`ining birinchi
14	B.Qudratov	Tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o`zgarishi bo`limi boshlig`i
15	E.Toshev	Tuman qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bo`limi boshlig`i
16	N.Amonova	Tuman Maktabgacha va maktab ta`limi bo`limi boshlig`i
17	B.Gaffarov	Tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig`i
18	J.Sharopov	Tuman Favqulodda vaziyatlar bo`limi boshlig`i
19	B.To`xtapulatov	Tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo`limi boshlig`i v.v/b
20	N.Xotamov	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo`limi boshlig`ining birinchi o`rinbosari
21	S.Abdusalimov	Tuman Yoshlar ishlari bo`limi boshlig`i
22	S.Ne`matov	“Mahallalar” uyushmasi tuman bo`limi boshlig`i
23	Q.Safarov	Tuman Savdo-sanoat palatasi boshlig`i
24	T.Abdiyev	“Nuroniyy” jamg`armasi tuman bo`limiraisi

25	B.Xujamqulov	Tuman hokimligi bosh mutaxassisi
----	---------------------	----------------------------------